XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 2 - avgust VI-82-59-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

“O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral gaz quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)larni tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni, “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral gaz quvurlari boshqarmasining 2023-yil 13-martdagi 50-04/277-son, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasining 2023-yil 7-martdagi 398/01-06-son hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 11-martdagi 01/06/20-05-38/268-son xatlariga asosan “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral gaz quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)larni tartibga solish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral gaz quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)lar yuzasidan xulosalari inobatga olinsin.

2. “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral gaz quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi xizmatlari uchun narx (tarif)larni quyidagicha:

1 m^3 ichimlik suvini Gazli shaharchasidagi aholiga sotish uchun 1000 so‘m *(QQS siz)*;

1 m^3 ichimlik suvini Gazli shaharchasidagi budjet tashkilotlariga sotish uchun 4050 so‘m *(QQS siz);*

1 m^3 ichimlik suvini Gazli shaharchasidagi ulgurji iste’molchilarga sotish uchun 4050 so‘m *(QQS siz)* etib belgilash ma’qullansin.

3. “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral gaz quvurlari boshqarmasi (SH.Haydarov)ga tariflarni amalda qo‘llash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuni va tegishli qonun osti hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta’minlash topshirilsin.

4. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

6. Ushbu qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**